Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
Research BIB / Index Copernicus
(E)ISSN: 2181-1784
4(6), June, 2024
www.oriens.uz

# INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PEDAGOGIKAGA OID TERMINLARNING SEMANTIK TAHLILI

**Normamatova Farida Choriyevna**
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti
Tel: +998994228116
E-mail: faridachorievna@gmail.com

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning semantik xususiyatlari borasida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, mavzuga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** pedagogika, ingliz, o'zbek tili, ta'lim, tarbiya, maktab, ta'lim muassasasi, o'qituvchi.*

## ABSTRACT

*This article discusses the semantic characteristics of pedagogic terms in English and Uzbek languages. Also, is analyzed local and foreign literature on the topic.*

***Key words:** pedagogy, English, Uzbek language, education, training, school, educational institution, teacher.*

## KIRISH

Bugun mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or xalqaro andozalar asosida pedagoglar tayyorlash sifatini oshirish, oliy pedagogik ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasini oshirish borasida bir qancha ijobiy o'zgarishlar ro'y berganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Xususan, professor-o'qituvchilar tayyorlashga ixtisoslashgan qator oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ta'limning ushbu yo'nalishida xorijiy davlatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etilgan. Oliy pedagogik ta'limni rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy bazasi mukammal yaratilgan. Bu holat pedagogika sohasida kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagog kadrlar tayyorlash infratuzilmasini rivojlantirishga asos bo'lmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda pedagogika sohasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilayotgan ekan, bu borada xorijy davlatlarning pedagogika sohasida qo'llaniladigan termin-atamalarini har tomonlama tushunish, o'zbek tilidagi sohaga oid atamalar bilan qiyosiy tahlil qila olish nihoyatda muhimdir.

Hozirgi vaqtda o'zbek va ingliz tillaridagi pedagogik terminologiyaning strukturaviy, semantik va grammatik xususiyatlari to'liq o'rganilmaganligicha qolmoqda. Pedagogik atamalarning semantikasini shakllantirishda lingvistik

elementlardan foydalanish rivojlanmagan. Shu nuqtai nazardan tadqiqotchilar tomonidan o'zbek va ingliz tillari pedagogik terminologiyasining tarkibiy-semantik tahlilini olib borishi zamonaviy qiyosiy tadqiqotlarda juda dolzarb masaladir, deb hisoblaymiz.

**ADABYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Tillarni terminologik nuqtai nazardan qiyoslash masalasi bilan tilshunoslikda M.Pokrovskiy, V.Vundt, V.Vartburg, N.Shmelev, O.S.Axmanova, M. Shukurov, M. Qosimova, M. Sultonov kabi xorijiy va mahalliy olimlar shug'ullanganlar. Ushbu tadqiqotchilar o'z izlanishlari orqali pedagogikaga oid terminlarning semantic-strukturaviy xususiyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilganlar[1].

Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning semantik tahliliga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasi uchun qo'llaniladigan qiyosiy tahlil, analogiya, analiz, sintez kabi metod va usullardan samarali foydalanilgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.**

O'zbek va ingliz tillarida pedagogikaga oid atamalarning ma'nosini tushunishni takomillashtirish jarayoni hali yakuniy bosqichga yetib bormagan. Pedagogik terminologiyada yangi atama va so`zlar yangi tushunchani bildirish uchun yaratilmaydi, faqat adabiy tilda mavjud vositalardan foydalaniladi.

Pedagogikaga oid atamalar eng avvalo inson shaxsi bilan bevosita aloqadordir. Pedagogika sohasida ilg'or bo'lgan mamalakat tillarida shaxs atamalari ko'pgina turlarga bo'linadi: learners-Ta'lim oluvchilar: pupil-o'quvchi, student-talaba, abutrent-abutrent;O'qituvchi- Ta'lim beruvchilar: o'qituvchi-o'qituvchi; [2] Pedagogikaga oid atamalarning qiyosiy tahlili jarayonida pedagogika sohasida o'xshash atamalar va ularning har ikki tilda uzviy bog'liqligi hamda bir maqsadda qo'llanishi kuzatilgan.

Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid yasama terminlar ta'lim sohasida keng qo'llanilib kelinmoqda. Ayni paytda, terminshunos olimlar va mutaxassislarning izlanishlari tobora ortib, bu sohaning integratsiyalashuv jarayonlari bo'yicha ilmiy oqimining kelib chiqishiga asos bo'ldi[3].

Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogika sohasiga oid terminlarni quyidagi turlarga ajratib tadqiq qilish mumkin:

1. Oddiy pedagogik terminlar \ simple pedagogical terms. Bularga *book, paper, school, subject* va boshqa shu kabi atamalarni misol sifatida keltirishimiz mumkin;

[1] Бердыева, Т. Терминологическое словообразование. Ежегодник, 1980/Т. Бердыева. – М.:1981. – С.150.
[2] Abdullaeva, N. R. (2020). THE PERFECT TEACHING METHOD: CASE OF UZBEKISTAN. Theoretical & Applied Science, (7), 10-15.
[3] Моисеев, С. Проблематика определений терминов в словарях разных типов// С. Моисеев. - Л.: Наука,1976. – С. 79-80.

2. Yasama pedagogik terminlar \ derivative pedagogical terms. Ushbu turdagi terminlarga misol sifatida *activeness, learnedly, paralanguage capabilities, reduplication, teacher, reader, writor, implications* kabi terminlarni keltirishimiz mumkin;

3. Qo'shma pedagogik terminlar \ combined pedagogical terms. Bu guruhga *right-handed, left-handed, handwriting, whiteboard; blackbord* kabi atamalarni misol sifatida keltirishimiz mumkin;

4. Terminologik iboralar \ terminological expressions. Ushbu guruhga esa misol sifatida *Be into – be actively interested in sth- biror narsa bilan faol qiziqmoq, Take up – start doing a new activity- yangi faoliyat bilan shug'ullanish, Read up on – study sth. by reading a lot about it; Fall behind – make less progress than other people kabi terminlarni keltirdik*;

5. Terminologik birikmalar \ terminological compounds. Ushbu guruhga esa misol sifatida *Active Learning; Authentic Assessment, Blended or Hybrid Course, Culturally Responsive Pedagogy; Experiential Learning* kabi atamalarni kiritish mumkin[4].

XXI asr mamlakatimiz uchun fan, madaniyat, til, adabiyot va ta'lim sohalarida o'zgarishlar davri hisoblanadi. Tadqiq etilayotgan mavzu bo'yicha to'plangan materiallar shuni ko'rsatadiki, madaniyat taraqqiyoti hayotning ko'plab sohalari, jumladan, pedagogika, fan va texnikaning ko'plab sohalari rivojiga xizmat qilgan[5].

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida pedagogika sohasiga xos bo'lgan terminlarni semantik jhatdan o'rganish, bu boradagi olimlarning tadqiqotlarini har tomonlama tadqiq etish ushbu sohaning taraqqiyotiga, shuningdek xorijiy tillarni o'qitish tizimining rivojlanishiga xizmat qiluvchi jarayonlardan hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Аракин.В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков//В.Д.Аракин, М.: ФИЗМАТЛИТ,2005. -115-120 с.
2. Бердыева, Т. Терминологическое словообразование. Ежегодник, 1980/Т. Бердыева. – М.:1981. – С.150-156
3. Виноградов, В.В. Избранные труды. // Т.З. Лексикология и лексикография/В.В.Виноградов. -М.: Наука,1977. – С.39-43

[4] Baratboyevna, N. M. (2023). Ingliz va o 'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning strukturaviy tahlili. *Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali*, *3*(2), 307-317.
[5] Abdullaeva, N. R. (2020). The Perfect Teaching Method: Case Of Uzbekistan. Theoretical & Applied Science, (7), 10-15.

4. Мельничук, А.С. Понятие системы и структуры языка в свете диалектического материализма // А. С. Мельничук / Вопросы языкознания, 1970, №1. -27-34с.
5. Моисеев, С. Проблематика определений терминов в словарях разных типов// С. Моисеев. -Л.: Наука,1976. -79-80 с.
6. Baratboyevna, N. M. (2023). Ingliz va o ‘zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning strukturaviy tahlili. *Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali*, *3*(2), 307-317. Abdullaeva, N. R. (2020). THE PERFECT TEACHING METHOD: CASE OF UZBEKISTAN. *Theoretical & Applied Science*, (7), 10-15.
7. Абдуллаева, Н. Р. (2018). РАЗНЫЕ ВИДЫ ГЛАГОЛОВ ДВИЖЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Гуманитарный трактат*, (37), 37-38.
8. Abdullayeva, N. (2021). THEMATIC CLASSIFICATION OF NAMES OF FRUIT TREES IN THE ASPECT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION (ON THE MATERIAL OF THE UZBEK, TAJIK AND ENGLISH LANGUAGES). *InterConf*.
9. Абдуллаева, Н. Р., & Шаймарданова, М. У. (2024). ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ПЛОДОВЫХ ДЕРЕВЬЕВ И КУСТАРНИКОВ В АСПЕКТЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО, ТАДЖИКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ). *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *25*, 86-89.
10. Ramazonovna, A. N. (2024). PROVERBS AND SAYINGS WITH PHYTONYMS AND THEIR ANALYSIS IN COMPARIED LANGUAGES.
11. Абдуллаева, Н. Р. (2024). Пословицы И Поговороки О Растениях В Сопоставляемых Языках. *Open Herald: Periodical of Methodical Research*, *2*(1), 4-7.
12. Абдуллаева, Н. Р. (2024). КОНЦЕПТ “РАСТЕНИЕ” В НАУЧНЫХ ТРУДАХ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *23*, 34-39.
13. Xamidov, M. (2023). ON SOME SIMILAR AND DIFFERENT ASPECTS OF PROVERBS AND SUBJECTS. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, *15*, 66-68.
14. Abdumannobovich, X. M. (2023). TRANSFORMATION OF PAREMIOLOGICAL UNITS IN SOUTHERN SURKHANDARYA UZBEK DIALECTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *3*(05), 168-173.

15. Abdumannobovich, X. M. (2021). O'ZBEK TILI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARIDA SOMATIK SO'ZLAR SALMOG'I (Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalari misolida): Xamidov Mansur Abdumannobovich Termiz davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi. In *Научно-практическая конференция*.
16. Xamidov, M. (2023). BADIIY MATNLARDA UCHROVCHI O 'ZBEK SHEVA MAQOLLARINING TRANSFORMATSIYASI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *3*(25), 204-206.
17. Xamidov, M. A. (2022). Surxondaryo o 'zbek shevalariga doir ayrim paremalar tahlili. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(7), 676-684.